

**TURK DEVON ADABIYOTIDAGI JANRLARNING
SHAKLLANISHIDA “G‘ARIBNOMA” ASARINING O‘RNI VA
AHAMIYATI**

Mamadjonov Sherzod Luqmonjon o‘g‘li

Oriental universiteti stajyor-o‘qituvchisi

sherzodbek0513@gmail.com

Annotatsiya. Turk devon adabiyoti deganimizda, Gulshahriyning lirik she‘rlari bilan boshlanib, Shayxii, Ahmadiy, Kadi Burhoniddin kabi shoirlar ijodi bilan mustahkamlanib, Mahmud Abdul Boqiy, Fuzuliy kabi ijodkorlar sa‘y-harakati bilan o‘z cho‘qqisiga chiqib, to XX asr boshlariga qadar davom etgan klassik adabiyot nazarda tutiladi. An‘anaviylik va bir oldingisidan yana ham chiroyliroq, yana ham mukammalroq yozishga intilish ushbu adabiyotning asosini tashkil qiladi. Bu urinishlar masnaviyalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Biror bir mavzuni, aytaylik, Layli va Majnun orasidagi ishqiy munosabatlarini qayta-qayta qalamga olgan o‘nlab ijodkor shoirlarning mavjudligi fikrimiz dalilidir. An‘ana shunday ekan, qaysidir asarlar o‘zidan keyingi asarlar uchun tayanch vazifasini bajarishi turgan gap. “G‘aribnoma” asari ham ana shunday tayanch asarlardan biri hisoblanadi. Hajm jihatidan ulkan bo‘lgan bu asarda kichik-kichik mavzular berib boriladi va bu mavzular ichida kelajakda ulkan masnaviyarga manba bo‘la oladigan “Mavlud”, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayho”, “Gul va bulbul”, “Qissas-ul Anbiyo” kabi parchalar ham mavjud. Ushbu maqolamizda ham “G‘aribnoma” asarining turk devon adabiyotidagi janrlar shakllanishida tutgan o‘rni haqida so‘z olib boramiz.

Kalit so‘zlar: “G‘aribnoma”, “Mavlud”, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayho”, “Gul va bulbul”, “Qissas-ul Anbiyo”

Abstract. Turkish devan literature is meant as classical literature when started with Gulshahri's lyrical poems, strengthened with the work of poets such as Shaykhi, Ahmadi, Kadi Burhaneddin, reached its peak with the efforts of poets

such as Mahmud Abdul Baqi, Fuzuli and finished the beginning of the 20th century. Traditionalism and the desire to write more beautiful and more perfect than the previous one form the basis of this literature. These efforts are clearly visible in the Masnavi genre. The fact that there are dozens of poets who repeatedly wrote about the same theme, say, the romantic relationship between Leyla and Majnun, is proof of our opinion. So that certain works serve as a basis for subsequent works. The work named "Garibname" is considered one of these basic works. In this work, which is huge in terms of size, small topics are given and among these topics, "Mawlud", "Layli and Majnun", "Yusuf and Zulayha", "Flower and Nightingale", "Qissas ul Anbiyya" which would be the source of great Masnavies in the future, are also available. In this article, we will talk about the role of "Garibname" in the formation of genres in Turkish Devan literature.

Key words: "Garibname", "Mawlud", "Layli and Majnun", "Yusuf and Zulayha", "Flower and Nightingale", "Qissas-ul Anbiyya"

Аннотация. Турецкая деванская литература понимается как классическая литература, когда она началась с лирических стихов Гульшахри, подкреплена творчеством таких поэтов, как Шейхи, Ахмади, Кади Бурханеддин, достигла своего пика усилиями таких поэтов, как Махмуд Абдул Баки, Физули и завершила начало 20 век. Традиционализм и стремление написать красивее и совершеннее предыдущего составляют основу этой литературы. Эти усилия отчетливо видны в жанре Маснави. Доказательством нашего мнения является тот факт, что десятки поэтов неоднократно писали об одной и той же теме, скажем, о романтических отношениях Лейлы и Меджнуна. Чтобы определенные произведения послужили основой для последующих произведений. Одним из таких основных произведений считается произведение под названием «Гарибнаме». В этом огромном по размеру произведении даны небольшие темы и среди этих тем «Маулуд», «Лейли и Меджнун», «Юсуф и Зулайха», «Цветок и Соловей», «Киссас уль Анбия», которые стали источником

великих Маснави в будущем, также доступны. В этой статье мы поговорим о роли «Гарибнаме» в формировании жанров в турецкой деванской литературе.

Ключевые слова: «Гарибнаме», «Маулуд», «Лейли и Меджнун», «Юсуф и Зулайха», «Цветок и Соловей», «Киссас-уль Анбия».

Oshiq Posho XIII asr oxiri – XIV asr boshlaridagi turk tasavvuf adabiyotining zabardast vakilidir. U Jaloliddin Rumi, Yunus Emre, Hoji Bektoshi Valiy kabi tasavvufiy asarlar yozib, oddiy xalqni ilm chashmasidan suv ichishiga, insonlarga irfon tarqatib komil inson bo‘lib yetishishlariga umrini baxshida etgan shaxsiyatlardan edi. Oshiq Posho o‘z asarlarida insonlarni qusur va kamchiliklardan xoli bo‘lishga, yaxshilik qilishga chaqiradi. Asosiy e‘tiborni esa, inson qalbida yolg‘iz Alloh Taologa bo‘lgan muhabbat gullarini o‘sib unishiga qaratadi. Chunki, *Tasavvufda en yuce mertebe visâle ermektir. Bu visal ise kuşkusuz Allah’ın cemalı ve vaslıdır. Allahın cemalı kuluna tezahur olsa, kul kendini kaybeder, kendinde geçer(tasavvufda eng buyuk maqom visoldir. Visol esa, hech shubhasiz Allohning jamoli va vaslıdır. Allohning jamoli bandasiga ko‘rinsa, banda o‘zini yo‘qotadi, shuuridan ayriladi)* [2;118]. Uning o‘rta hisobda 12 ming baytga yaqin [3;104] “G‘aribnoma” asari ham o‘sha davrda bu maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun yozilgan asardir. Sodda va ravon, arabcha va forscha so‘zlar imkon qadar oz qo‘llangan asar xalq uchun tushunarli til bilan yozilgan. Shundan bo‘lsa kerak, ushbu asarning nusxalari ushbu davrda yozilgan boshqa asarlarga qiyosan ancha ko‘p.

Ushbu asar hajm jihatidan buyukligi bilan birga, o‘zidan keyingi turk adabiyotida shakllangan bir qator janrlar uchun ilhom manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Misol uchun, “G‘aribnoma” turk adabiyotida o‘z o‘rniga ega “*Mavlud*” janrini shakllanishida katta ahamiyatga ega. “G‘aribnoma”ning ba’zi baytlari ayrim o‘zgartirishlar bilan yoki asl holicha Sulaymon Chalabiy tomonidan *Mavlud* asariga olingan. Asardagi:

Allah adin eytlum evvel ibtidâ

K'andan oldi ibtidâ vü intihâ [5;1]

(Alloh ismin aytay avval boshda

Undan yaraldi ibtido-yu intiho) (Tarjima bizniki) bayti Sulaymon Chalabiyning "Vasilat-un Najot" (Mavlud) asarida

Allâh adın zikredelim evvela

Vacib oldu cümle işte her kula [4;10]

(Alloh ismin zikr etaylik avvalo,

Vajib bo'ldi barcha ishda har qulga) (Tarjima bizniki) shaklida biroz ishlangan bo'lsa,

"G'aribnoma"dagi:

Cümle 'âlem yog-iken ol var-ıdı

Şöyle eksüksüz ganî cebbâr-ıdı [5;3]

(Jumla olam yo'q ekan Ul bor edi,

Shunday mukammal, boy va Jabbor edi) (Tarjima bizniki) bayti Sulaymon Chalabiyning "Vasilat-un Najot" (Mavlud) asarida

Cumle alem yok iken ol var idi

Yaradılmıştan Gani Cebbâr idi [4;10] shaklida aynan olinganiga guvohi bo'lamiz.

Bunday misollarga ikki asarni boshdan oxir qiyoslaganimizda juda ham ko'p duch kelishimiz mumkin. Faqat ilmiy ish mavzusidan chetga chiqmaslik uchun bu haqida keyingi ilmiy ishlarimiz to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Yana ushbu asarning o'zida mujassam etgan janriy unsurlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, dastlab arab adabiyotidan fors adabiyotiga, so'ngra turkiy adabiyotga o'tgan sharqning mashhur ishqiy dostonlari bo'lmish "Layli va Majnun", "Yusuf va Zulayho" dostonlarining Onadoli hududidagi turkiy adabiyotda ilk ko'rinishlaridan biriga ham duch kelishimiz mumkin. Oshiq Posho "G'aribnoma"ning sakkinchi bobining "Alloh Taolo sakkiz turli oshiq-mashuqlarni yaratib, ularga o'z nuridan ato etibdi. Ular bir-birlarida ushbu nur-i jamolni ko'rib, bir-birlarini sevishlari bayoni" nomli oltinchi dostonida 6377-6402-baytlarini

Yusuf va Zulayhoning ishqiy mojarosiga, 6433-6465-baytlarini esa Layli va Majnunning ishq ichra sarguzashtlariga bag‘ishlaydi. Aynan shu dostonida mumtoz adabiyotida oshiq va mashuq ramziga aylangan “Gul va bulbul” sevgisini, ishq otashida yonib-tutishini, ularda yuzaga kelgan hollarini bayon etadi. Devon adabiyotida keyinchalik ko‘pgina shoirlar o‘z lirikalarida gul va bulbulga oid tashxislarida Oshiq Posho ta’siri sezilib turadi. Sinon Posho, Kaygusuz Abdal, Yazijiog‘li Mahmud kabi ijodkorlar ijodlarini bunga misol tariqasida ko‘rsatishimiz mumkin.

“G‘aribnoma” asarining janriy xususiyatlarini davom ettirar ekanmiz, shu o‘rinda diqqatimizni torgan jihat Oshiq Posho davrida va undan oldingi davrlarda urf bo‘lgan Payg‘ambarlar tarixini yoritgan asarlarning unsurlari ve elementlarining qarshimizga chiqishidir. Ushbu asarning Qur‘on-i Karimda nomi zikr etilgan ba’zi payg‘ambarlarning ta’rifi ketma-ketlikda keltirilgan parchasi o‘sha davrlarda ko‘plab qalamga olingan “Qissas-ul Anbiyo”, “Tarix-ul Anbiyo” turining eski Onadoli turkchasidagi kichik namunasi. Asarning birinchi bobining ikkinchi dostonida payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vassallam bilan birgalikda to‘qqiz payg‘ambarga ishorat etilgan va ularning hollari bayon etilgandir. Bular: Odam alayhissalom (277-281-baytlar), Nuh alayhissalom (282-286-baytlar), Muso alayhissalom (287-291-baytlar), Ibrohim Halillulloh (292-296-baytlar), Davud alayhissalom (297-301-baytlar), Sulaymon alayhissalom (302-306-baytlar), Iso alayhissalom (307-311-baytlar), Yusuf alayhissalom (312-316-baytlar) va Payg‘ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vassallam (317-324-baytlar).

Bir qarashda hajmi jihatdan kichikligi va payg‘ambarlar hayoti haqida to‘liq ma’lumot berilmaganligi sababli asarning bahs etilayotgan parchasi “*Payg‘ambarlar tarixi*” turidan ko‘ra, payg‘ambarlarga na’t va olqish mazmunidagi kirish qismiga o‘xshab ketadi. Ammo asarning debochasida Allohga va uning payg‘ambarlariga na’tlar va olqishlar aytib o‘tilgan. Bundan tashqari, so‘z borayotgan parcha asarning asosiy qismidan olingan va har bir payg‘ambarga

Alloh Taolo tomonidan in'om etilgan mo'jizalariga va boshidan kechirgan voqea hodisalarga ishorat borligi bunday fikr va qarashni inkor etadi.

Shu o'rinda, Sharqda Usmonli davlatida "Devoni Shayx Muhyiddin Chalabiy" nomli devondagi she'rlarda Xizr taxallusi ko'p qo'llangani va Xizr alayhissalomni madhiga bag'ishlangani uchun "Xizrnoma" nomini olgan asar Turkiyida ushbu turda yozilgan ilk asar hisoblanadi. Asar muallifi Muhyiddin Chalabiy bo'lib o'z asarida Xizr alayhissalom bilan uchrashganligi, u bilan birga g'oyibotlarga sayyohat qilganligi yoritilgan.

Türünün Osmanlı sahasında bilinen tek örneği olup 880 (1476) yılı dolaylarında kaleme alınmıştır. Dîvân-ı Şeyh Muhyiddîn Çelebi adını taşımakla birlikte manzumelerin mahlas beyitlerinde hemen daima Xizr adı da geçtiğinden daha çok Hızırnâme ismiyle anılır. Müellif ve eseri hakkında kaynaklarda herhangi bir bilgi yoktur [1;417] (Bu janrning Usmonli sohasida bilingan yagona namunasi bo'lib, 880 (1476) yil atrofida yozilgan. Devon-i Shayx Muhyiddin Chalabiy nomi bilan birgalikda, she'rlarining taxallus ishlatilgan baytlarida ko'pincha Xizr ismi ham qo'llanilganligi uchun ham "Xizrnoma" nomi bilan tanilgan. Muallif va asar haqida manbalarda hech qanday ma'lumotlar yo'qdir).

Ushbu manbada demakki, Usmonli davri adabiyotida Xizr alayhissalomga bag'ishlangan asar XV asrgacha yozilmagan degan iddao ilgari surilgan. To'g'ri, bu fikrga qo'shilmasdan ilojimiz yo'q. Chunki Muhyiddinning asari ushbu havolada janr sifatida tilga olingan. Lekin Oshiq Poshoning "G'aribnoma" asarida Xizr alayhissalom holotiga bag'ishlangan bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Xususan ushbu asarning sakkizinchi bobi to'rtinchi dostoni to'lig'icha Xizr alayhissalomga bag'ishlangan: *Dördinçi dâsitân sekizinçi bâbdan beyân-i merteb-i Kerâmet-i Xizr 'Aleyhisselâm ider bil kim Hak Ta'âlâ ol büyüğe sekiz dürlü 'atâ kerâmet kilupdur ve hiç kimseye kullarından bu kerâmeti kilmadi ve anuñ hakkina didi ve âteynâhu rahmeten min 'indinâve 'allemnâhu min ledünnâ'ilme 18/65.[5;600] (Sakkizinchi bob to'rtinchi dostoni Xizr alayhissalom karomat martabaliri bayonida-ki, Alloh Taolo boshqa kishilarga ato etmagan sakkiz turli*

ato qilibdur va u haqida “Biz unga O‘z dargohimizdan rahmat va O‘z tarafimizdan ilm o‘rgatgan edik” [4;192].

Ko‘rinib turibdi-ki, Oshiq Posho ushbu dostonida Xizr alayhissalomning sakkiz karomatidan bahs etadi.

Hak sekiz dürlü ‘atâ viridi añâ

Şerhi birle eydeyüm bir bir saña [5;621]

(Haq Taolo sakkiz turli karomat berdi unga,

Sharhi bilan aytayin bir-bir senga) (Tarjima bizniki)

Shoir Xizr alayhissalom karomatlarini bayon etish jarayonida juda ko‘p Qur‘on-i Karimdan dalillar keltiradi. Ushbu doston 180 baytdan iborat (6000-6180 – baytlar) bo‘lib hajm jihatidan uncha katta bo‘lmasa-da, mavzu-ma‘no jihatidan, ifoda tarzi ko‘lami jihatidan yuqorida aytib o‘tgan Xizrnoma janriga bir misol bo‘la oladi. Faqat “G‘aribnoma”ning bir qismi bo‘lganligi, alohida yozilmaganligi ushbu parchani janr deb atashimizga to‘sqinlik qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz lozim-ki, Oshiq Poshoning “G‘aribnoma” asari ham o‘z davrida hamda o‘zidan keyingi davrlarda insonlarga ma‘nan bilim va ko‘nikma berib kelgan bo‘lsa, hozirda esa ham ma‘nan, ham ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, ushbu asar orqali olimlarimiz XIII-XIV asr Onadolu insoni nimani his qilyapti, qanday turmush kechiryapti, madaniy jihatdan qanday saviyada, insonlar orasidagi munosabatlar qay yo‘sinda kabi ijtimoiy savollar yonida, o‘sha davr turk tili haqida qimmatli ma‘lumotlarga ega bo‘lishmoqda. Shuningdek, adabiy obida sifatida ushbu asar, keyingi yetti asrda rivojlanib bo‘y ko‘rsatgan devon adabiyoti uchun ham qimmatli xazina vazifasini o‘tab bergan. Xususan, ijtimoiy hayotda turk tilining yozuv tili sifatida shakllanishida beqiyos o‘ringa ega. Bundan tashqari, “Mavlud”, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayho”, “Gul va bulbul”, “Qissas-ul Anbiyo”, “Xizrnoma” kabi bir qator adabiy janrlarning takomillashuvida ham anchayin ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ahmet A. TDV İslâm Ansiklopedisi. TDK yayınları. İstanbul. 1998. 17. cilt,
2. KENCAYEVA P., MAMADJONOV S. Yunus Emre ve Baba Rahîm Meşreb Şiirinde Tasavvufi Düşüncelerin Müşterekliği //Karabük Türkoloji Dergisi. – 2023. – T. 6. – №. 1. – C. 109-122.
3. Mamadjonov S. OSHIQ POSHONING “G‘ARIBNOMA” ASARIDA INSON MAQOMOTI VA UNING DARAJALARI //Interpretation and researches. – 2023. – T. 1. – №. 18.
4. Qur'oni Karim ma'nolar tarjiması. Tarjimon: Abdulaziz Mansur. O‘zbekiston Musulmonlar idorasi. Toshkent-2013. [Kahf surasi 65-oyat].
5. Yavuz K. Aşık Paşa “Garib-name” tıpkıbasım. 1-4-cilt . TDK yayınları. İstanbul. 2000.
6. <https://www.turkedebiyati.org/vesiletun-necat-mevlid-suleyman-celebi/>